

---

## “Shahartepa” mahallasida tadbirkor ayollar ko‘paymoqda

Qo‘sh tepa tumani mahallalarida aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish, daromadini ko‘paytirish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, “Shahartepa” mahallasida ham kambag‘allikni qisqartirish, ishsiz aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha mahalla yettiligi tomonidan hamjihatlikda ko‘plab chora-tadbirlar samarali tashkil etilmoqda.

Ushbu mahallada yashovchi Zamiraxon Salimova bugungi kunda o‘z biznesini yo‘lga qo‘yib, odamlarni ish bilan ta‘minlayotgan ko‘plab tadbirkor xotin-qizlardan biridir. U mahalla hokim yordamchisining tavsiyasiga asosan imtiyozli kredit olib ish faoliyatini boshlagan. Hozirda esa o‘z iste‘dodi va qobiliyatini namoyon etib, turli xil pishiriqlarni tayyorlab el dasturxoniga taqdim etib kelmoqda. Buning natijasida oilaviy daromadini oshishiga katta hissa qo‘shmoqda. Qolaversa Zamiraxon mahalladagi o‘zi singari 2 nafar ishsiz ayolga ish berib, ro‘zg‘orini tebratishida ko‘maklashib kelyapti.

2024-12-23 10:39:10